

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.17.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

**Qo‘lyozma huquqida
UO‘K: 631:36(575.1)**

Xudayberdiyeva Sadoqat Abdimannonovna

**O‘ZBEKISTONDA SUG‘URTA KOMPANIYALARI VA BANKLARNING
O‘ZARO INTEGRATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

Ixtisoslik: 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doktor of Philosophy)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar: i.f.f.d., dosent. Kenjayev Ilhom G‘iyozovich

Toshkent shahri – 2025 yil

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. TIJORAT BANKLARI VA SUG'URTA TASHKILOTLARI O'RTASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MEXANIZMLARINING NAZARIY ASOSLARI	12
§1.1. Tijorat banklari va sug'urta tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro integratsion hamkorlikning mohiyati, shakl va turlari	12
§1.2. Tijorat banklari va sug'urta tashkilotlari o'rtasida yuzaga keladigan hamkorlik munosabatlarda banksug'urta xizmatlarining tasniflanishi	20
§1.3. Moliyaviy xizmatlar bozorlarining globallasuvi sharoitida banksug'urta xizmatlari bo'yicha xorij tajribasi.....	27
Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	33
II BOB. TIJORAT BANKLARI VA SUG'URTA TASHKILOTLAR O'RTASIDA O'ZARO HAMKORLIK MUNOSABATLARNI IQTISODIY VA MOLIYAVIY TAHLILI.....	35
§2.1 Tijorat banklar va sug'urta tashkilotlari o'rtasida o'zaro hamkorlik munosabatlarning amal qilishi va uni tashkil qilishdagi zamonaviy yondashuvlar	35
§2.2 Tijorat banklari va sug'urta tashkilotlari o'rtasida o'zaro hamkorlik munosabatlarini amalga oshirish bilan bog'liq muammolar va ularni tahlili.....	45
§2.3 Tijorat banklari va sug'urta tashkilotlari o'rtasida o'zaro hamkorlik jarayonlarini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini baholash.....	63
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	79
III BOB O'ZBEKISTON BANKLARI VA SUG'URTA KOMPANIYALAR O'RTASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	81
§3.1 Tijorat banklari va sug'urta tashkilotlari o'rtasida o'zaro hamkorlik munosabatlarni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.....	81
§3.2 Tijorat banklari va sug'urta tashkilotlari o'rtasida o'zaro hamkorlik munosabatlarini samaradorlik ko'rsatkichlari va me'zonlari.....	94
Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	103
XULOSA.....	105
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	108
ILOVALAR.....	116

KIRISH

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo moliya bozorining rivojlanishi turli xil moliyaviy faoliyat, kapital va biznes jarayonlarini birlashtirish shaklidagi integratsiya jarayonlarining kuchayishi bilan tavsiflanadi. Bozorda moliyaviy vositachilar o‘zaro integratsiyasining ustuvor yo‘nalishi banklar va sug‘urta kompaniyalarining o‘zaro integratsiyasi hisoblanadi. Bugungi kunda dunyo miqyosida yuz berayotgan iqtisodiy beqarorlik holatida iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari hisoblangan banklar va sug‘urta kompaniyalar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali iqtisodiyotning barqarorligini oshirish hamda katta hajmdagi uzoq muddatli investitsion manbalarning hosil bo‘lishiga erishilmoqda. Chet el banklarining tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, ular tomonidan olinayotgan foydaning 1/3 qismi sug‘urta mahsulotlarini realizatsiya qilish faoliyati hissasiga to‘g‘ri kelmoqda¹.

Yevropada hayot sug‘urtasining o‘rtacha har uchinchi sug‘urta polisi va umumiy sug‘urtaning har yigirmanchi sug‘urta polislari banklar tomonidan berilgan sug‘urta polislari to‘g‘ri keladi. Banklar tomonidan sug‘urta xizmatlarini taqdim etishning paydo bo‘lishi 1980-yillarning o‘rtalariga to‘g‘ri kelib, ushbu xizmat o‘sha davrda dastlab Buyuk Britaniya tijorat banklarining bo‘limlari tomonidan amalga oshirilgan². Bugungi kunda tijorat banklari bilan sug‘urta tashkilotlari o‘rtasidagi munosabatlarni ikki xususiyati bilan tavsiflash mumkin: o‘zaro hamkorlikka asoslangan munosabatlar va o‘zaro raqobatni yuzaga keltiruvchi munosabatlar. Sug‘urta kompaniyalari va banklar o‘rtasidagi munosabatlarning asosini korxona va tashkilotlar hamda aholining bo‘sh pul mablag‘larini jalb qilish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

O‘zbekistonda barqaror va yuqori sur‘atdagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashda sug‘urta kompaniyalar va banklarning o‘zaro integratsiyasini

¹Bancassurance: продукти, технологи та системи мотивати//Финансовий ринок України.–2007.–№11.–С. 9-10.

²Яцентюк О.Н.Особенности банковского страхования: мировой опыт и российские реалии/О.Н.Яцентюк// Страхование дело.–2006.–№2.–С.9-16.

takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Natijada sug'urta kompaniyalari va banklar o'rtasidagi hamkorlikning yanada rivojlanib, ko'p sonli bank va sug'urta xizmatlaridan foydalanuvchilarga bir vaqtning o'zida bank va sug'urta xizmatlaridan foydalanish imkoniyati yaratildi hamda banklarga sug'urta tashkiloti nomidan sug'urta shartnomalarini tuzish amaliyotiga ruxsat berildi³. "Banklar va sug'urta kompaniyalar integratsion hamkorligining shakli, turlari, texnologiyalari, ob'ekt va sub'ektlari hamda integratsiya instrumentlarini birlashtirishga"⁴ qaratilgan vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning bajarilishini ta'minlashda sug'urta kompaniyalari va banklar o'rtasidagi hamkorlik munosabatlarini zamonaviy va optimal tizimini innovasion yondashuvlar asosida shakllantirish va sug'urta xizmatlarining samaradorligini oshirish kabi masalalarning ilmiy tadqiq etilishini taqozo etadi. Bu esa mazkur dissertatsiya ishi mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi, 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi, 2018-yil 1-avgustdagi PF-5495-son "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustda PQ-4412-son "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 23-oktyabrdagi PQ-5265-son "Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urtasi sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2022-yil 6-oktyabrdagi PQ-387-son "Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2024-yil 1-martdagi

³O'zbekiston Respublikasi 2019-yil 5-noyabrda yangi taxrirda qabul qilingan "Banklar va bank faoliyati to'g'risida qonunning 7-moddasi

⁴O'zbekiston Respublikasi 2019-yil 2-avgustdagi 4412-sonli "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining birinchi bo'limi hamda ushbu qaror bilan tasdiqlangan "Yo'l xaritasi" ning 21 va 30 bandlari

PQ-108-son “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi ma’lum darajada xizmat qiladi..

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari va banklarning o‘zaro integratsiyasini takomillashtirishning nazariy, uslubiy va amaliy jihatlarini xorijlik iqtisodchi-olimlar G.Benoist, E.Berkovitch, M.Narayanan, J.Cummins, M.Bradley, A.Desai, E.Kim, C.Calomiris, J.Canals, G.Galati, R.Moessner, I.Walter, O.D.Averchenko, A.Penyugalova, A.Shkurenko larning⁵ilmiy tadqiqot ishlarida tahlil qilingan.

Mahalliy iqtisodchi-olimlardan: S.G‘ulomov, H.Boyev, J.Boyeva, B.Ashrafxonov, M.Mirsadikov, R.Husanov, A.Yadgarov, X.Shennayev, M.Xodjaeva, M.Asqarova, T.Boymurotov, A.Nurullayev, Q.Qo‘ldoshev, I.Abduraxmonov, I.Kenjayev, G.Xaliqulova, F.Xasanov, R.Azimov, O.Yuldashev, N.Babayeva, Sh.Zakirxodjayeva, N.Mavrulova, D.Abduturapova I.Mavlonovalarning ilmiy ishlarida sug‘urta sohasining turli

⁵Benoist G. Bancassurance: The New Challenges / G. Benoist // The Geneva Papers on Risk and Insurance. – 2002. – Vol. 27, № 3. – P. 295–303., Berkovitch E., Narayanan M.P. Motives for Takeovers An Empirical Investigation. Journal of Financial and Quantitative Analysis. - № 3, September 1993. - P.34-42., Bradley M., Desai A., and Kim E. The rationale behind interfirm tender offers: Information or synergy? Journal of Financial Economics. – 1983.- №11(1-4). P. 183-206., Calomiris C.W. The Origins of Banking Panics: Models, Facts, and Policy Regulation [in R. Glenn Hubbard, ed., Financial Markets and Financial Crises]. – Chicago: University of Chicago Press for the National Bureau of Economic Research. – 2003. – 54 p., Canals J. Competitive Strategies in European Banking // Oxford University Press. – 2005. – P. 34., Galati G. Moessner R. Macroprudential policy – a literature review. Netherlands Bank DNB Working Papers. – 2010. – №267. - 38 p, Walter I. Universal Banking and Financial Architecture // The Quarterly Review of Economics and Finance. – 2012. – Vol. 52, № 2. – P. 114-122., Аверченко О.Д. Механизм интеграции страховых компаний и банков в системе взаимодействия участников финансового рынка. //Финансы, денежное обращение и кредит. Вестник РЭУ им. Г.В.Плеханова, 2016 №2 (86). Пенюгалова А.В., Шкурченко А.И. Интеграция рынка страхования и банковского сектора: современное состояние и перспективы развития // Банковское дело, 19 (451) – 2011.

